



_____ *hokimligi*
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ *maktabgacha va*
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qutuvchisi
_____ *ning*

20__ - 20__ - o'quv yiliga 11 – sinf
adabiyot fanidan III chorak uchun

DARS

ISHLANMALAR

“TASDIQLAYMAN”

O‘IBDO‘ _____

**20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan 11-sinf adabiyot fani III chorak
taqvimiy mavzu rejasi**

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
III chorak				
1.	Anbar Otin. “Risolayi falsafayi siyohon” asari (Qarolar falsafasi)dan. Shoiraning hayoti va ijodi.	1		
2.	“Qarolar falsafasi”ning mazmuni va mohiyati	1		
3.	Abdurauf Fitratning hayoti va ijodiy faoliyati. “Abulfayzxon” – ilk o‘zbek realistik dramasi	1		
4.	Drama matni bilan tanishish	1		
5.	Dramadagi asosiy qahramonlar talqini.	1		
6.	Asarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari va ma’rifiy ahamiyati	1		
7.	Nazorat ishi-5	1		
8.	Shoir hayoti va ijodi. Cho‘lpon – yetuk nosir.	1		
9.	“Kecha va kunduz” romani	1		
10.	Badiiy asar tahlili (amaliy)	1		
11.	Badiiy asar tahlili (amaliy)	1		
12.	Badiiy asar tahlili (amaliy)	1		
13.	Erkin Vohidov. “Ruhlar isyoni” dostoni. Shoir hayoti va ijodi haqida ma’lumot. Uning she’riyatiga xos kechinmalar nozikligi va ifoda go‘zalligi, mumtoz she’riyatga xos ilg‘or an’analarning she’riyat an’analari bilan uyg‘unligi	1		
14.	“Ruhlar isyoni” dostoni matni bilan tanishish	1		
15.	"Ruhlar isyoni" dostoni tahlili	1		
16.	Rauf Parfi she’riyati. Rauf Parfining hayoti va ijodi. Shoirning “Tong otmoqda”, “Yomg‘ir yog‘ar” she’rlari	1		
17.	“Yoz kechasi”, “Yana qaytib keldim”, “Yurak” she’rlari talqini	1		
18.	Nazorat ishi-6	1		
19.	Mustaqil o‘qilgan asar yuzasidan suhbat	1		
20.	O‘tilganlar bo‘yicha takrorlash	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Anbar Otin. “Risolayi falsafayi siyohon” asari (Qarolar falsafasi)dan. Shoiraning hayoti va ijodi.

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o’quvchilarga mavzu bo’yicha nazariy ma’lumotlar berish, malaka va ko’nikmalarni hosil qilish, kitob, betakror badiiy asar inson ma’naviyatini shakllantirish va boyitishdagi eng asosiy manbalardan biri ekaniga ishonch hosil qildirish. Kitoblar ezigulik va yaxshilikka, mehr va muruvvatga, ijod va ijodkorlikka undashi haqida tushuncha berish.

Tarbiyaviy: o’quvchilarga vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg’ularini singdirish, badiiy adabiyot hayotning o’ziga xos sifatida ong-u tafakkurga beqiyos ijobiy ta’sir o’tkazishini, o’ylashga, qiyoslash va xulosalar chiqarishga undovchi kuch-quvvat berishi, o’zbek adabiyoti tarixi, mumtoz Sharq va jahon adabiyotidan tanlangan namunalarni o’qib tahlil qilishga o’rgatish.

Rivojlantiruvchi: ajdodlarning vatan, millat ravnaqi, erk-u ozodligi yo’lidagi fidoyiliklari, mardonavorliklari, jasoratlari, mehnatsevar va tadbirkor, aqlli, dono, ijodkor, kamtar, yuksak insoniy fazilatlar bo’lganligi haqida tushuncha berish. o’quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, tafakkurini, asarlarni tahlil qilish hamda ifodali o’qish malakalarini rivojlantirish.

II. FK-fanga oid kompetensiyalar

FK1- Adabiy-nutqiy kompetensiyalar (tinglab tushunish, fikrni og’zaki bayon qilish, o’qish, fikrni yozma bayon qilish)

FK2- Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

Darsning metodi: og’zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o’zi uchun.

Nazorat: o’quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o’quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo’limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O’tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O’quvchilarni rag’batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so’rash: a) Savol – javob o’tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

XIX asr ikkinchi yarmi–XX asr boshlari o’zbek adabiyotida shoirlar ijodi alohida o’rin tutadi. Anbar Otin ham ularning biri edi. Shoira «Tarjimayi hol» asarida, jumladan, shunday deydi: Otam – Farmonquli Marg’iloniy, Onam – Ashurbibi Qo’qoniy. Ular bo’zchi, aniqrog’i, belbog’chilik bilan mashg’ul bo’lishgan. Oila juda kambag’al yashagan: Alar belboqchi – bo’zchi erdi kasbi, Hamisha makkayidan1 erdi noni, Ki «Bo’zchi yolchimas belboqqa» doim, Yana juft bo’lmas erdi bir choponi. Kambag’alchilik va nochorlik oilaviy hamjihatlikka ham putur yetkazadi. Anbar va uning ukase o’gay ota tarbiyasida qoladi. Anbarni Qo’qon shahriga – Zohidxo’ja degan kishiga turmushga uzatishadi (Anbar Otin she’rlaridan birida uni «zahmat ahli»dan deb yozadi, «Debocha»da esa uning «O’ratepadan yalangoyoq yetim kelg’an»ini ko’rsatib o’taldi). Ularning to’rtta farzandi bo’lgan: Mo’minxo’ja, Bibixon, Usmonxo’ja, Ominaxon (yoshligida vafot etgan).

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: “Qarolar falsafasi”ning mazmuni va mohiyati

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o’quvchilarga mavzu bo’yicha nazariy ma’lumotlar berish, malaka va ko’nikmalarni hosil qilish, kitob, betakror badiiy asar inson ma’naviyatini shakllantirish va boyitishdagi eng asosiy manbalardan biri ekaniga ishonch hosil qildirish. Kitoblar ezigulik va yaxshilikka, mehr va muruvvatga, ijod va ijodkorlikka undashi haqida tushuncha berish.

Tarbiyaviy: o’quvchilarga vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg’ularini singdirish, badiiy adabiyot hayotning o’ziga xos sifatida ong-u tafakkurga beqiyos ijobiy ta’sir o’tkazishini, o’ylashga, qiyoslash va xulosalar chiqarishga undovchi kuch-quvvat berishi, o’zbek adabiyoti tarixi, mumtoz Sharq va jahon adabiyotidan tanlangan namunalarni o’qib tahlil qilishga o’rgatish.

Rivojlantiruvchi: ajdodlarning vatan, millat ravnaqi, erk-u ozodligi yo’lidagi fidoyiliklari, mardonavorliklari, jasoratlari, mehnatsevar va tadbirkor, aqlli, dono, ijodkor, kamtar, yuksak insoniy fazilatlar bo’lganligi haqida tushuncha berish. o’quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, tafakkurini, asarlarni tahlil qilish hamda ifodali o’qish malakalarini rivojlantirish.

II. FK-fanga oid kompetensiyalar

FK1- Adabiy-nutqiy kompetensiyalar (tinglab tushunish, fikrni og’zaki bayon qilish, o’qish, fikrni yozma bayon qilish)

FK2- Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

Darsning metodi: og’zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o’zi uchun.

Nazorat: o’quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o’quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo’limlar	Vahti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O’tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O’quvchilarni rag’batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so’rash: a) Savol – javob o’tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Ikkinchi fasl

Bu faslda man farqi qarolar taqdirini bayong’a keltirurman. Avvalo, farq iborasi uldurki, ayollar boshini ikki qismga ajratib, peshonasidin, ya’ni burni ustidin ayriliq yo’l tushar, shu(l) yo’lni farq deyurlar, ma’nisi ulki o’ng taraf va chap tarafni farq qilmoq uchun zarurdir. Ma’lum bo’ldiki, farq deb ayol boshidag’i chiziqni nom olduk. Bas, farq ayol boshida bo’lsa, ul farq qay xilda bo’lmog’ini ham bilmoqni taqozo qilur. Ayol sochini farqi har ikki tarafg’a barobar taralg’on bo’lub, nihoyat, silliq bo’lg’onidan yaroqqos jilosi bo’lur, ul jilog’a nazar solub, bu ayol taqdirini nelar bilan o’turini muoyina tafakkur ko’zi ila ko’rib bo’lur. Bu farq egasini man inson onosi har nechuk donishmand enagasi deb bilurman, ul ono shundog’ onodur va mohir donodurki, Aflotun va Arastuni, Laqumojis va Doniyolni, Xizr ila Ilyosni, Iskandar-u Doroni, Luqmon va Sulaymonni,

Abu Sino va Ulug‘bekni, Jomiyni, Sa‘diyini, Navoiyni, Firdavsiyni, Bedil va Xayyomni, Nodira va Uvaysiyni, meni va seni o‘z qornida o‘n oy ko‘tarub, turli ofatlardin saqlab, yegan g‘izosidan rasamat berib, to‘qson to‘qquz to‘lg‘oq dardini tortub tug‘ub, hanuz ko‘z ochishg‘a majolimiz va sut emmoqqa kamolimiz bo‘lmag‘on murg‘ak va g‘ilmak holimizda ko‘zimizni ochib, olamni ko‘rish va sut emish qobiliyatig‘a davvor-u mohir qilibdur, ko‘z mujgonlarini shona4 qilib, undin barcha xilmlarni5 bartaraf qilib, nimjon barmoqlarimizni silab, band-bandig‘a yig‘ilg‘on kirlarni artib, qo‘limizg‘a biror narsalarni ushlatub, harakat-ish o‘yinlarni o‘rgatti. O‘shal ono o‘zi o‘rgatgan harakatlar chaqaloqdin voqe‘ bo‘lganda, kamoli xushnudlikdan boz1 bolani qaynoq va yumshoq ko‘ksiga bosub, hidlab, bo‘salar qilur. Go‘yo boladin sodir bo‘lg‘on harakatlar bolani hushyor, botirlig‘idin bo‘lubdur va go‘yo onog‘a bir ulug‘ foydaliq mehnat qilib berubdur. Bas, shundog‘ mehribon ono ham mazkur farqi qarolari jumlasidandur...

Uchinchi fasl

Bu faslda men baxti qarolar borasida so‘z yuritaman, aslida din peshvolari baxti qaro deb o‘z aqidalari bilan dunyoda faqat mehnat va mashaqqat bilan kun o‘tkuzib, toat va ibodatni maromiga yetkazmagan va yana pir xizmatini munosib qilib, pir yo‘llanmasini olmaganlarni aytishadi. Bizning fikrimiz bu aqidaga zid holda, aksincha, umri mehnat va mashaqqat bilan o‘tib ketgan guruh ayni bebaxt odamlardirki, ularni baxti to dunyo turguncha barq urib, dostonlarni yoritib turadi. Bilmoq kerakki, Farhod shahzodalikdan ishq gadosi bo‘lishni afzal bilib, o‘z ma‘shuqasining orzusini ro‘yobga chiqarmoq uchun qoya toshlarni, daryo(larni) to‘sib, sahroni obod etish uchun mehnat va mashqqatga giriftor bo‘ldi. Shunday ekan, ma‘lum bo‘ladiki, Farhod kabi doston bo‘lib uning orzusi butun bashariyat orzusi bo‘lsa, nima uchun bu toifa mashaqqat chekkanlar baxtiqaro bo‘ladi?! Haqiqatni aytganda, baxtiqaro shu toifalardirki, ular mehnatdan yiroq bo‘lib, besh kun ko‘rgan umrini rohat bilan o‘tkazish maqsadida ming hiyla va aldovlar bilan ustamonlik qilib, o‘zgarlar mehnati bilan davlat to‘plab, obro‘ va boylik hosil qilib, ommaning nafratiga giriftor bo‘lib umri ado bo‘lar. Ular shoh bo‘lsa, zolim mulla bo‘lsa, so‘zi boshqa, ishi boshqa amaldor bo‘lsa, «jafokor» nomi bilan dunyodan o‘tishadi, biror kishi u toifani yaxshi nom bilan yod etmaydi va hech bir donishmand (ularning) hayoti haqida esdalik uchun doston ham to‘qimaydi.

To‘rtinchi fasl

Bu faslda qora zulmat haqida so‘z yurutmoqchiman. Aqlga ishoradirki, hech zulmat oq bo‘lmas, albatta, bu «zulmat» so‘zi qarong‘ilikning baland sifati bo‘lib, bu so‘z ifodaga kelgan zahoti tinglaguvchi nazarida yorishmog‘i dushvor bo‘lgan qarong‘i manzara ko‘ringay. Bundoq manzarani ko‘rguvchi uni tasvir etishga qobiliyat paydo qilgan va uni ko‘rish quvvatiga ega bo‘lgan, zulmat tasavvuriga ojiz va uni ko‘rish qobiliyatidan begona kishi «zulmat» deb qarong‘i kechani bilar va u kecha so‘ngidan yaqin soat va muayyan vaqtda yorug‘ kun kelishini, albatta, bilar... Zulm ustun kelib, bir mamlakatni bosib tursa, bu zulmni oftob va tong ravshanligi bartaraf etolmas, bunday zulmatni adolat kuchi yengar. Adolat kuchiga chiday olmagan zulmat ko‘pincha majoziy hokim va zolimlar tarafidan joriy qilinadi... Zolim aqlining yo‘qligidan bexabar o‘zini, shubhasiz, aqlli va dono hisoblab, har ishni qilish fikriga kelsa, o‘sha ishni nihoyat ma‘qul va maqbul va xaloyiq uchun majburiy qilar, u rejasini amalga oshiradi, ... ijrosiga farmon beradi. O‘sha farmon qilgan mashaqqati el boshiga zulmdirki, o‘sha zulm soyasi «zulmat» deyilar...

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Dilshod Barnoning bo‘lajak shoira haqidagi qaydlarini o‘qing va unga o‘z munosabatingizni bildiring.
2. «Qarong‘ulikda» so‘z hozirgi adabiy tilimizda qanday talaffuz qilinadi va yoziladi? Ularni qiyoslang, mohiyati va sababini tushuntirib bering.

V. Darsni yakunlash: o‘quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifani e‘lon qilish: yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O‘IBDO‘: _____

(imzo)

(sana)

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o'zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

47 listdan iborat adabiyot fanidan 11-sinf III chorak konspektini to'loq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To'lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!
Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**